



ELLIKQAL'A TUMANI AQCHAKO'L KO'LINING ASOSIY OVLANADIGAN BALIQ TURLARINING MORFOLOGIK VA BIOEKOLOGIK XUSISIYATLARI

Genjebaev M.,¹ Aytova X.,¹ Jiyemuratov M.,²

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

***Annotasiya.** Ushbu maqolada Ellikqal'a tumani hududida joylashgan Akchako'l ko'lining asosiy ovlanadigan baliq turlarining morfologik belgilarini va ularning bioekologik xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot davomida karas, sazan, oq amur, oq do'ngpeshona kabi iqtisodiy ahamiyatga ega baliqlar turlari tanlab olinib, ularning tana uzunligi, og'irligi, tashqi tuzilishi, yashash muhiti va oziqlanish xususiyatlari tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida suv havzasining baliqchilik salohiyatini baholash va biologik resurslardan oqilona foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** morfologik belgilar, bioekologiya, ekotizim, populyatsiya, trofik zanjir, fitoplankton, optimal, intensiv o'sish, detrit.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются морфологические и биоэкологические особенности основных промысловых видов рыб озера Акчакуль, расположенного на территории Эликкалинского района. В ходе исследования были выбраны экономически значимые виды рыб, такие как карась, сазан, белый амур и белый толстолобик. Проанализированы их длина и масса тела, внешние морфологические признаки, среда обитания и особенности питания. На основе полученных данных дана оценка рыбохозяйственного потенциала водоема и предложены рекомендации по рациональному использованию биологических ресурсов.*



Ключевые слова: морфологические признаки, биоэкология, экосистема, популяция, трофическая цепь, фитопланктон, оптимум, интенсивный рост, детрит.

Abstract: This article examines the morphological and bioecological characteristics of the main commercially harvested fish species in Akchako'l Lake, located in the Ellikqala district. The study focused on economically significant species such as crucian carp, common carp, grass carp, and silver carp. Their body length, weight, external morphology, habitat, and feeding behaviors were analyzed. Based on the findings, the fishery potential of the lake was evaluated, and strategies for the sustainable use of biological resources were suggested.

Keywords: morphological features, bioecology, ecosystem, population, trophic chain, phytoplankton, optimum, intensive growth, detritus.

Kirish. O'zbekiston ichki suv havzalarida baliqchilik xo'jaligi so'nggi yillarda rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida joylashgan Akchako'l ko'li tabiiy-ekologik va xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan suv havzasi hisoblanadi. Ushbu ko'lda baliqchilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ko'l ichki suv ekotizimi sifatida qator baliq turlariga yashash va ko'payish uchun qulay muhit yaratgan.

Ushbu maqolada 2025 yil bahor va yoz mavzumidagi ilimiy tadqiqotlar davomida Ellikqal'a tumani Aqshko'l ko'lida eng ko'p mig'dorda ovlangan baliq turlarining morfologik belgilari, bioekologik xususiyatlari va ularning bir-biridan farqi bo'yicha to'plangan ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar jadvalga yozildi, diagramma va rasmlar bilan ko'rsatildi.

Akchako'l ko'lida quyidagi baliq turlari ko'proq uchraydi va ovlanadi:

- Oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix*)
- Oq amur (*Ctenopharyngodon idella*)



- Chipor do'npeshona (*Aristichthys nobilis*)
- Oq sla (*Stizostedion lucioperca*)
- Kumush tovonbaliq (*Carassius auratus gibelio*)
- Sazan (*Cyprinus carpio*)
- Ilonboshbaliq (*Channa argus*)
- Laqqa baliq (*Silurus glanis*)
- Qizilqanot baliq (*Scardinius erythrophthalmus*)

Ellikqal'a tumanidagi Akchako'l ko'li tarkibida yashovchi baliqlar morfologik tuzilishi, oziqlanish turi va ekotizimdagi roli jihatidan bir-biridan farqlanadi. Quyida ushbu ko'lda uchraydigan sazan, ilonbosh-baliq, laqqa va chipor do'ngpeshona baliqlarining asosiy bioekologik belgilariga to'xtalamiz.

Sazan (*Cyprinus carpio*)-uzunligi 30–60 sm, og'irligi 1000–5000 g bo'lgan ovalsimon tanali baliqdir. U o'simliklar va mayda bezumlar bilan oziqlanadi. Ko'payish davri asosan aprel–iyun oylariga to'g'ri keladi, suv harorati 18–22 °C bo'lishi kerak. Sazan substrat (tub)larni qazib, ularni tozalash orqali suv havzasining gigiyenasini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Ilonbosh-baliq (*Channa argus*) - uzunligi 25–70 sm, og'irligi 800–3000 g atrofida bo'lib, tanasi ilonsimon shaklga ega. U yirtqich bo'lib, mayda baliqlar va boshqa suv jonzoatlari bilan oziqlanadi. May–iyun oylarida ko'payadi, bu davrda suv harorati 20–26 °C atrofida bo'ladi. Ilonbosh populyatsiyani muvozanatlab turuvchi nazoratchi vazifasini bajaradi.

Laqqa (*Silurus glanis*) -juda yirik yirtqich baliq bo'lib, uzunligi 40 dan 150 sm gacha, og'irligi esa 2000–10000 g va undan ortiq bo'lishi mumkin. Tanasining yuzasi yalang'och, cho'zilgan va silliq bo'lib, u may–iyun oylarida 18–20 °C haroratda ko'payadi. Ekologik jihatdan u trofik zanjirning yuqori pog'onasida turadi va yirtqichlik xususiyati bilan muhim rol o'ynaydi.



Chipor do'ngpeshona (*Aristichthys nobilis*) - uzunligi 40–90 sm, og'irligi 1500–7000 g bo'lgan katta boshli baliqdir. Asosan fitoplanktonlar bilan oziqlanadi. May–iyul oylarida ko'payadi, suv harorati 21–26 °C bo'lishi kerak. Bu baliq turi suvdagi fitoplanktonlarni kamaytirib, suv tiniqligini oshiradi va ekotizimning umumiy sog'lom holatini ta'minlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan baliq turlari Akchako'l ko'li ekotizimida oziq zanjiri, suv sifati va biologik muvozanatning barqarorligini saqlashda muhim ekologik rol o'ynaydi. Ularning morfologik, fiziologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish baliqchilikni rivojlantirishda, suv resurslaridan oqilona foydalanishda va tabiiy muvozanatni saqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Jadval-1

Baliqlarning morfologik va bioekologik xususiyatlari

Baliq turi	Uzunligi (sm)	Og'irligi (g)	Oziqlanishi	Ko'payish davri	Suv harorati (°C)	Ekologik roli
Sazan	30–60	1000–5000	O'simlik, bezumlar	Aprel–iyun	18–22	Substratlarni tozalaydi
Ilonbosh-baliq	25–70	800–3000	Yirtqich	May–iyun	20–26	Populyatsiyani muvozanatlaydi
Laqqa	40–150	2000–10000	Yirtqich	May–iyun	18–20	Zanjir uchi yirtqich
Chipor do'ng-peshona	40–90	1500–7000	Fitoplankton	May–iyul	21–26	Suv tiniqligini oshiradi



Ellikqal'a tumanida joylashgan Akchako'l ko'li ichki suv havzalaridan biri bo'lib, unda turli xil baliq turlari uchraydi. Ularning har biri ekotizimda muhim ekologik rol o'ynaydi. Quyida ushbu ko'ldagi asosiy ovlanadigan baliqlar – oq do'ngpeshona, oq amur, sudak va karas baliqlari haqida qisqacha tavsif beriladi.

Oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix*) — asosan fitoplanktonlar bilan oziqlanadigan o'simlikxo'r baliq hisoblanadi. U may–iyun oylarida ko'payadi. Optimal suv harorati 20–26 °C ni tashkil etadi. Bu baliq turi suv havzasida fitoplanktonlar sonini nazorat qilish orqali suvning biologik muvozanatini ta'minlaydi.

Oq amur (*Ctenopharyngodon idella*) esa suv o'simliklari bilan oziqlanadigan o'simlikxo'r baliqdir. Ko'payish davri may–iyul oylariga to'g'ri keladi. Bu davrda suv harorati 22–28 °C atrofida bo'lishi lozim. Oq amur ko'l o'simliklarining ortiqcha ko'payishini cheklab, suv havzasi ozuqaviy zanjirida muhim rol o'ynaydi.

Oq sla (*Stizostedion lucioperca*) yirtqich baliq bo'lib, u boshqa mayda baliqlar va hayvonlar bilan oziqlanadi. Ko'payish davri aprel–may oylariga to'g'ri keladi. Optimal suv harorati 16–20 °C ni tashkil qiladi. Sudak ko'ldagi baliq populyatsiyasi muvozanatini saqlab turuvchi asosiy regulyator sifatida namoyon bo'ladi.

Kumush tovonbaliq (*Carassius auratus gibelio*) esa hammayerda yashovchi, moslashuvchan baliq hisoblanadi. U may–iyun oylarida ko'payadi, suv harorati 18–25 °C atrofida bo'lishi lozim. Karas zooplankton va detrit bilan oziqlanadi va suv tubidagi organik moddalarni iste'mol qilish orqali ekologik tozalashchi rolini bajaradi.

Umuman olganda, bu baliq turlari Akchako'l ko'li ekotizimining muhim komponentlari hisoblanadi. Ularning oziqlanish turi va ko'payish davri suv havzasida ekologik muvozanatni saqlash, suv sifati va biologik xilma-xillikni ta'minlashda asosiy omillardandir.



Jadval-2

Aqshako'l ko'lidagi ovlangan baliqlarning bioekologik xususiyatlari

Baliq turi	Oziqlanish turi	Ko'payish davri	Suv harorati	Ekologik roli
Oq do'ngpeshona	Fitoplanktonlar bilan	May–iyun	20–26 °C	Suvdagi fitoplanktonlarni nazorat qiladi
Oq amur	O'simlikxo'r	May–iyul	22–28 °C	Ko'l o'simliklarini tartibga soladi
Sudak	Yirtqich	Aprel–may	16–20 °C	Populyatsiya muvozanatini saqlaydi
Karas	Harxilnarsani yeydigan	May–iyun	18–25 °C	Zooplankton va detrituslar bilan oziqlanadi

Asosiy ovlanadigan baliqlarning yo'shga bo'g'liq xususiyatlari va parqi quyidagicha bo'ldi.

Baliq turi	Yoshi	O'rtacha uzunligi (sm)	O'rtacha og'irligi (g)
Karas	1	10–12	40–60
	2	14–16	90–130



	3	17–20	150–220
Sazan	1	13–15	60–100
	2	20–25	200–400
	3	30–35	600–900
Ilonboshbaliq	1	20–25	150–300
	2	30–40	400–700
	3	45–55	1000–1800
Laqqa baliq	1	25–35	300–600
	2	50–60	1000–2000
	3	70–90	2500–4000

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir baliq turida yoshi ortgani sayin uning o‘rtacha tana uzunligi va og‘irligi ham muntazam ravishda oshib boradi. Bu holat baliqlarning biologik o‘shish qonuniyatlariga to‘liq mos keladi.

Karas (*Carassius auratus gibelio*) baliqlari 1 yoshda o‘rtacha 10–12 sm uzunlikda va 40–60 g og‘irlikda bo‘ladi. 3 yoshga yetganda esa ularning uzunligi 17–20 sm gacha, og‘irligi esa 150–220 g gacha ortadi. Bu ko‘rsatkichlar karas baliqlarining dastlabki uch yilda tez o‘shish sur‘atiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Sazan (*Cyprinus carpio*) baliqlari esa ilk yildanoq karasga qaraganda ancha katta tana tuzilishiga ega. 1 yoshda ular 13–15 sm uzunlik va 60–100 g og‘irlikka ega bo‘lsa, 3 yoshda ularning uzunligi 30–35 sm, og‘irligi esa 600–900 g gacha yetadi. Bu sazan baliqlarining intensiv o‘shish sur‘atini ko‘rsatadi.

Ilonboshbaliq (*Channa argus*) lar 1 yoshda 20–25 sm uzunlik va 150–300 g og‘irlikda bo‘lib, 3 yoshda 45–55 sm uzunlik va 1000–1800 g og‘irlikka yetadi. Bu



tur o'sish bo'yicha ham uzunligi, ham og'irligi bo'yicha barqaror va tez o'sadigan baliqlar sirasiga kiradi.

Laqqa baliq (*Silurus glanis*) esa eng yirik turlardan biri bo'lib, 1 yoshda 25–35 sm uzunlik va 300–600 g og'irlikka ega. 3 yoshda esa tana uzunligi 70–90 sm, og'irligi esa 2500–4000 g gacha ko'tariladi. Bu ko'rsatkich laqqa baliqlarning boshqa turlarga nisbatan nihoyatda tez va yirik o'sishini ta'minlashini ko'rsatadi.

Umuman olganda, barcha turlarda yoshi oshgani sari tana uzunligi va og'irligining izchil ravishda oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa ularning har bir yosh bosqichida turli biologik va oziqlanish ehtiyojlariga ega bo'lishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.A. Yuldashev , T.B.Salixov, B.G.Kamilov “ O'zbekiston baliqlari ” Monografiya. Toshkent 2018.
- 2.. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov DE., “ Qaraqalpaqstanniń haywanat dúnyası” Nókis. 2020. 70,91-105
3. Q.Qayıpbekov., “ Qaraqalpaqstan faunası” Nókis 2009.
4. Kamilov G.K. Fish from the reservoirs of Uzbekistan.- Tashkent: science UzSSR, 1973.
5. Мирабдуллаев И.М., Мирзаев У.Т., Кузметов А.Р., Кимсанов З.О. Ўзбекистон ва қўшни худудлар балиқлари аниқлагичи. -Ташкент, 2011.-107 б.
6. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. - М.:Пищевая промышленность, 1966.